

FOYDALANUVCHI KELISHUVI

Toshkent sh.

« » sentyabr 2025 y.

Ushbu foydalanuvchi kelishuvi (keyinchalik **"Kelishuv"** deb yuritiladi) Foydalanuvchiga "Unitel" MCHJning (keyinchalik **"Operator"** deb yuritiladi) taklifi hisoblanadi.

Kelishuvni akseptlash potensial Foydalanuvchi tomonidan Platforma orqali birinchi marta avtorizatsiya qilganda va/yoki Platformadan va/yoki Platforma orqali taqdim etiladigan har qanday xizmatdan foydalanishni davom ettirganida amalga oshiriladi (Kelishuvga o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa).

Kelishuv akseptlangandan so'ng, Foydalanuvchi Kelishuvning barcha shartlarini shartsiz va istisnosiz qabul qilgan hisoblanadi.

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

1.1. Boshqacha shartlar belgilangan hollardan tashqari, katta harflar bilan ko'rsatilgan va ushbu Kelishuvda ishlatilgan atamalar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

"Abonent raqami" - shartnoma asosida Foydalanuvchiga uyali aloqa operatori tomonidan ajratilgan telefon raqami;

"Avtorizatsiya" - Foydalanuvchiga Platformaga kirish huquqini berish tartibi;

Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish – shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish bo'yicha bir yoki bir nechta harakatni amalga oshirish;

"Hamkor" - Foydalanuvchiga xizmat ko'rsatish uchun Operator tomonidan jalb qilingan Operator hamkori;

"Shaxsga doir ma'lumotlar" - muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot;

"Platforma" - mobil qurilmalar orqali foydalanuvchilar uchun mavjud bo'lgan dasturiy ilova. Platforma Foydalanuvchilarga unda joylashtirilgan turli xil kontent bilan o'zaro aloqada bo'lish va Operator va uning Hamkorlarining turli xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi;

"Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish va himoya qilish siyosati" – Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishning maqsadlari, huquqiy asoslari, tamoyillari, tartibi va shartlarini, shuningdek ularni himoya qilish va shaxsga doir ma'lumot subyektlari huquqlarini ta'minlash chora-tadbirlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq belgilaydigan hujjat bo'lib, quyidagi manzilda joylashtirilgan: <https://beeline.uz/uz/politika-obrabotki-i-zashchity-personalnyh-dannyh-unitel>

"Foydalanuvchi" - ushbu Kelishuvni akseptlagan jismoniy shaxs;

"Hisob yozuvi" - Foydalanuvchi tomonidan platformada Abonent raqamini ro'yxatdan o'tkazish va avtorizatsiya qilish orqali yaratilgan hisob yozuvi.

2. KELISHUV PREDMETI

2.1. Ushbu Kelishuvga muvofiq Operator Foydalanuvchiga Platformani e'lon qilingan funksional imkoniyatlari doirasida va ushbu Kelishuvda ko'rsatilgan shartlarda bepul ishlatish huquqini beradi.

2.2. Operator Foydalanuvchilarga Operator va uning Hamkorlarining turli xil raqamli servislari va xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini va Operatorning yangiliklari, maxsus takliflari va ogohlantirishlari bilan tanishish imkoniyatini taqdim etadi.

2.3. Platformaga kirish ruxsati Operator abonentlariga ham, O'zbekiston Respublikasining boshqa uyali aloqa operatorlari abonentlariga ham beriladi.

2.4. Platformadan foydalanganda oldindan to'lov hisob-kitob tizimi Operatori abonentlari uchun trafik tarifikasiya qilinmaydi.

2.5. Platformadagi servislari Operator va uning Hamkorlari tomonidan amalga oshiriladi va Foydalanuvchilarga pullik asosda taqdim etilishi mumkin. Bunday servislarni faollashtirish Foydalanuvchi tomonidan mustaqil ravishda, ixtiyoriy ravishda, servisning tavsifi, uni taqdim etish shartlari hamda foydalanish narxi va boshqa muhim ma'lumotlar bilan tanishgandan so'ng amalga oshiriladi. Bunday xizmatlarga nisbatan Foydalanuvchilarning Hamkorlar va Operator oldidagi huquqlari va majburiyatlari tegishli ofertalar bilan belgilangan tartibda va asoslarda paydo bo'ladi, bajariladi, o'zgartiriladi va to'xtatiladi.

3. SERVISLARGA KIRISHNI TA'MINLASH TARTIBI

3.1. Platformada dastlabki avtorizatsiya paytida Foydalanuvchiga hisob yozuvi yaratiladi.

3.2. Avtorizatsiya SMS-kod yordamida amalga oshiriladi. Ko'rsatilgan abonent raqamiga noyob besh xonali SMS-kod yuboriladi, uni Foydalanuvchi maxfiy va uchinchi shaxslarga kirish imkoni bo'lmagan tarzda saqlashi shart. Kod 120 (yuz yigirma) soniya davomida amal qiladi. Foydalanuvchi 120 (yuz yigirma) soniyadan so'ng kodni qayta so'rashi mumkin. Foydalanuvchi ushbu SMS-kodni tegishli Platforma interfeysida maxsus shaklga kiritadi. Kod muvaffaqiyatli tekshirilgandan so'ng avtorizatsiya o'tilgan deb hisoblanadi;

3.3. Dastlabki Avtorizatsiyadan so'ng Foydalanuvchi mustaqil ravishda doimiy parolni o'rnatish huquqiga ega, undan keyinchalik Foydalanuvchini Platformada Avtorizatsiya qilish uchun foydalanish mumkin.

4. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH

4.1. Mazkur Kelishuvni akseptlash va/yoki Platformada ro'yxatdan o'tish va/yoki Platformaning servislari va funksional imkoniyatlaridan foydalanish quyidagilarni anglatadi: (i) Foydalanuvchining Shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish va himoya qilish Siyosatiga to'liq va shartsiz rozi bo'lish, hamda (ii) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish va himoya qilish siyosati hamda mazkur Kelishuvda ko'rsatilgan maqsadlarda uning Shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish uchun aniq, ixtiyoriy va ma'lumotli rozilik berish.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Foydalanuvchining majburiyatlari:

5.1.1. ushbu Kelishuv matni bilan tanishib chiqish va uning shartlariga rioya qilish;

5.1.2. Platformadan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, shuningdek uchinchi shaxslarning huquqlari va manfaatlariga rioya qilish;

5.1.3. Platformaning normal ishlashini buzishga olib keladigan harakatlarni amalga oshirmaslik, shu jumladan viruslar, troyanlar va boshqa zararli dasturlardan foydalanmaslik;

5.1.4. Platformada ushbu Kelishuv shartlarining o'zgarishini mustaqil ravishda kuzatib borish;

5.1.5. Avtorizatsiya qilish uchun ishlatiladigan ma'lumotlarining maxfiy saqlanishini ta'minlash va ularning buzilishiga yo'l qo'ymaslik;

5.1.6. Avtorizatsiya qilish uchun ishlatiladigan ma'lumotlar yo'qotilgan yoki ularning maxfiyligi buzilayotganligi to'g'risida asosli shubhalar bo'lgan taqdirda darhol Operatorni xabardor qilish.

5.2. Foydalanuvchining huquqlari:

5.2.1. Kelishuv shartlariga muvofiq Platformadan foydalanish;

5.2.2. Platformaning shartlari va sifati bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha Operatorga murojaat qilish.

5.3. Operatorning majburiyatlari:

5.3.1. Foydalanuvchiga ushbu Kelishuv shartlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Platformadan foydalanish imkoniyatini bersin;

5.3.2. Platformadan foydalanishni qiyinlashtiradigan yoki yomonlashtiradigan favqulodda vaziyatlar to'g'risida Foydalanuvchini o'z vaqtida xabardor qilish;

5.3.3. Avtorizatsiya paytida Foydalanuvchidan olingan Foydalanuvchi ma'lumotlarini, shuningdek Foydalanuvchi Platformadan foydalanishi tufayli Operator ixtiyorida bo'lgan boshqa ma'lumotlarni maxfiy saqlash, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

5.3.4. Platformadagi nosozliklar, uzilishlar yoki ish sifatining yomonlashishini bartaraf etish choralari ko'rish.

5.4. Operator quyidagi huquqlarga ega:

5.4.1. Platformadan foydalangan holda amalga oshiriladigan noto'g'ri xatti-harakatlarni aniqlash va oldini olish uchun har qanday oqilona choralarni ko'rish;

5.4.2. ushbu Kelishuvga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish;

5.4.3. Platformaning mazmunini, uning tuzilishi va tashqi ko'rinishini belgilash, shuningdek ma'lum servislarga kirish uchun Platformadan foydalanish imkoniyatini belgilash yoki bekor qilish;

5.4.4. Foydalanuvchi mazkur Kelishuvni va/yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan taqdirda Operator uning uchun Platformadan foydalanish imkoniyatini to'xtatib qo'yishga haqli;

5.4.5. Kelishuv doirasida huquq va majburiyatlarni amalga oshirish maqsadida har qanday uchinchi shaxslarni, shu jumladan Hamkorlarni jalb qilish;

5.4.6. Platformaning istalgan qismida reklama va/yoki boshqa ma'lumotlarni joylashtirish;

5.4.7. quyidagi hollarda to'xtatib turish sabablari bartaraf etilgunga qadar Platformadan foydalanish imkoniyatini bir tomonlama tartibda to'xtatib turish:

- montaj, ishga tushirish, profilaktika, avariya ishlarini olib borishda, Operator tarmog'ida uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish yoki modifikatsiya ishlarini olib borishda, Operator yoki uchinchi shaxslarning uskunalarining texnik nosozliklari va ishlamay qolishida;

- Foydalanuvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzadigan va/yoki Operatorga, uchinchi shaxslarga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlar sodir etilganligi belgilari aniqlanganda;

- Platformadan tijorat maqsadlarida foydalanishda (qayta sotish uchun), Operator va/yoki mualliflik huquqi egalariining intellektual huquqlari har qanday tarzda buzilganda;

- Operator har qanday davlat, tartibga soluvchi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan qonuniy buyruq olganda;

5.4.8. Foydalanuvchidan Kelishuv shartlarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish;

5.4.9. ushbu Kelishuvda va/yoki O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

6. JAVOBGARLIK VA JAVOBGARLIKNI CHEKLASH

6.1. Tomonlar mazkur Kelishuvni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va ushbu Kelishuvga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Foydalanuvchi Platformada joylashtirilgan platforma va servislardan foydalanish bilan bog'liq o'z harakatlari uchun, shu jumladan, agar bunday harakatlar uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishiga olib kelsa, shuningdek Platformada joylashtirilgan Platforma va servislardan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun uchinchi shaxslar oldida mustaqil ravishda javob beradi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, Operator foydaning yo'qotilishi, daromad yetishmasligi, ma'lumot yo'qolishi, moliyaviy va/yoki boshqa zararlar, shuningdek bilvosita va/yoki kutilmagan zararlar uchun javobgar bo'lmaydi.

6.3. Foydalanuvchi Platformaning Foydalanuvchi foydalanadigan mobil qurilmaga mos kelmasligi va ziddiyatlari bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

6.4. Platformaga kirish "as is" tamoyiliga muvofiq taqdim etiladi, bu esa o'z navbatida Operator Platformaning Foydalanuvchining maqsadlari va kutgan natijalariga muvofiqligini, uning uzluksiz va xatosiz ishlashini kafolatlamasligini anglatadi. Platformadan Foydalanuvchi o'zi uchun xavfni anglagan holda foydalanadi. Operator Platformadan foydalanish yoki foydalana olmaslik natijasida Foydalanuvchiga yoki uchinchi shaxslarga bevosita yoki bilvosita yetkazilgan zararni qoplab bermaydi.

6.5. Operator noqonuniy xatti-harakatlar natijasida Foydalanuvchining hisob yozuviga kirgan uchinchi shaxslar tomonidan sodir etilgan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

6.6. Har qanday holatda ham Operator Platformadan foydalanish yoki foydalana olmaslik natijasida Foydalanuvchiga yetkazilgan bevosita yoki bilvosita va Operatorning aybi bilan sodir bo'lmagan xatolar, o'tkazib yuborishlar, ishdagi uzilishlar, funksiyalarning o'zgarishi, nuqsonlar, kechikishlar natijasida yuzaga keladigan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

6.7. Operator ushbu Kelishuv bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bu bajarmaslik Kelishuv tuzilgandan keyin Operator oldindan ko'ra olmaydigan yoki oldini ololmaydigan favqulodda holatlar natijasida yuzaga kelgan yengilmas kuch holatlari natijasida yuzaga kelgan bo'lsa. Yengilmas kuch holatlari deganda quyidagilar tushuniladi, lekin ular bilan cheklanmaydi: toshqin, yong'in, zilzila, davlat organlarining harakatlari yoki harakatsizligi, epidemiya va boshqa tabiiy hodisalar, urush yoki harbiy harakatlar va boshqalar.

7. INTELLEKTUAL MULK

7.1. Platformada ishlatiladigan va joylashtirilgan intellektual faoliyatning barcha natijalari (shu jumladan Platformaning o'zi) ularning qonuniy huquq egalarining intellektual mulki hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan muhofaza qilinadi.

7.2. Platformada joylashtirilgan intellektual faoliyat natijalaridan (shu jumladan platforma sahifalarining vizual bezaklari, ramzlar, matnlar, grafik tasvirlar, illyustratsiyalar, fotosuratlar, videolar, dasturlar, musiqa va boshqa obyektlar) Operator va/yoki tegishli mualliflik huquqi

egasining ruxsatisiz har qanday foydalanish noqonuniy hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

7.3. Foydalanuvchi Operator va/yoki tegishli mualliflik huquqi egasining rozilgisiz har qanday tijorat maqsadlarida Platforma va/yoki Platforma tarkibining biron bir qismini nusxalash, sotish, tarqatish, shuningdek undan foydalanish huquqiga ega emas.

8. KELISHUVNING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI O'ZGARTIRISH TARTIBI

8.1. Kelishuv belgilanmagan muddatga tuzilgan.

8.2. Operator Kelishuvni Operatorni maxsus ogohlantirmasdan o'zgartirishi mumkin, Kelishuvning yangi tahriri Platformada joylashtirilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi, agar Kelishuvning yangi tahririda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa.

8.3. Kelishuvning har qanday o'zgarishidan keyin Foydalanuvchi Platformadan keyingi foydalanishi Foydalanuvchining bunday o'zgarishlarga roziligini anglatadi. Agar Foydalanuvchi Kelishuv shartlariga rozi bo'lmasa, u Platformadan foydalanishni to'xtatish majburiyatini oladi.

8.4. Agar Kelishuvning 5.4.7-bandiga muvofiq Platformadan foydalanish imkoniyati to'xtatilgandan so'ng, 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida to'xtatib turish sabablari bartaraf etilmagan bo'lsa, Operator Kelishuvni bajarishdan bir tomonlama tartibda voz kechishga haqli.

8.5. Quyidagi hollarda Foydalanuvchi Kelishuvni bajarishdan bir tomonlama tartibda voz kechishga haqli:

8.5.1. bu haqda Operatorni ushbu Kelishuvning 11-bo'limida ko'rsatilgan manzil orqali yozma ravishda xabardor qilish orqali;

8.5.2. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish va himoya qilish siyosatiga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish roziligini bekor qilish orqali.

9. QO'LLANILADIGAN HUQUQ VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

9.1. Mazkur Kelishuv O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi va talqin qilinadi.

9.2. Ushbu Kelishuvdan kelib chiqqan har qanday nizo tinch yo'l bilan yoki Foydalanuvchining yozma arizasi asosida da'vo tartibida hal qilinishi kerak. Murojaatni ko'rib chiqish muddati va uning mazmuniga doir talablar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilanadi.

9.3. Agar yuzaga kelgan nizo da'vo tartibida hal etilmasa, u O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda javobgar turgan joydagi idoraviy mansublikdagi sudda ko'rib chiqilishi lozim.

10. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Agar qandaydir sabablarga ko'ra ushbu Kelishuvning bir yoki bir nechta qoidalari bekor qilingan yoki yuridik kuchga ega bo'lmagan deb topilsa, bu Kelishuvning qolgan qoidalarining amal qilish muddati yoki qo'llanilishiga ta'sir qilmaydi.

10.2. Agar Foydalanuvchi aksini isbotlamagan bo'lsa, uning mobil qurilmasidan foydalangan holda amalga oshirilgan har qanday harakatlar tegishli Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi. Agar uning mobil qurilmasiga ruxsatsiz kirilgan bo'lsa, Foydalanuvchi bu haqda darhol Operatorga xabar berishi shart.

10.3. Kelishuvda nazarda tutilmagan boshqa barcha jihatlarida Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

11. OPERATORNING MANZILI VA REKVIZITLARI

"UNITEL" MCHJ

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,
100047, Mirobod tumani, Buxoro ko'chasi, 1-uy.

STIR: 201838002